

## KORRUPSIYAGA BYUROKRATIYA VA PORAXO‘RLIKNI QANDAY YO‘QOTISH MUMKIN

*Boboyeva Nafisa Isomiddin qizi*

*Samarqand davlat chet tillar instituti fakulteti chet tillari fakulteti talabasi*

*Ilmiy rahbar: Sadinov Ma'rufjon Normo'minovich*

**Annotatsiya:** Hozirgi vaqtdagi davlat siyosati huquqiy islohotlarning asosiy tarmog‘i sifatida korrupsiyaga qarshi kurashish huquqiy asoslarini yaratilganligi va xalqaro huquqning ilg‘or ijobiy tajribasiga asosan takomillashtirilib borilayotganligini ko‘rish mumkin. Ushbu maqolada Korrupsiyaga byurokratiya va poraxo‘rlikni qanday yo‘qotish mumkinligi haqida mulohazalar bayon etiladi.

**Kalit so‘zlar:** Korrupsiya, byurokratiya, poraxo‘rlik, davlat, jamiyat, shaxs, yo‘qotish.

Korrupsiya (lotincha: corrumpō — aynish, poraga sotilish) — mansabdor shaxsning o‘z mansabi bo‘yicha berilgan huquqlarni shaxsiy boyish maqsadlarida bevosita suiiste‘mol qilishidan iborat amaliyot. Mansabdor shaxslarni sotib olish, ularning poraga sotilishi ham Korrupsiya deyiladi. Korrupsiya davlat apparati va parlament faoliyatida ayniqsa, avj oladi. Saylanadigan lavozimlarga nomzodlar saylov kampaniyasini o‘tkazish harajatlarini ko‘tarish Korrupsiya ko‘rinishlaridan biridir (saylangan kishi turli imtiyozlar, yordam, xizmatlar ko‘rsatib „o‘z qarzini“ qaytaradi). Aksariyat Korrupsiya lobbizm (monopoliyalarning qonunchilik organlari va amaldorlarga tazyiq o‘tkazish bilan shug‘ullanadigan muassasa va agentlari tizimi) bilan bog‘langan. Xalqaro darajada 1970-yillarda Yaponiyaga samolyotlar sotishda kompaniya tomonidan oliy davlat amaldorlarini sotib olish bo‘yicha “Lokxid ishi“ eng yirik Korrupsiya ko‘rinishlariga misol bo‘ladi. Porani xaspo‘shlash uchun yirik bitishuvlarda ko‘proq “xizmat haqi“ to‘lash amaliyotidan foydalaniladi.

Byurokratiya (frans. bureau byuro, idora; yun. kratos — kuch, hokimiyat, xukmronlik) — dastlab hukumat idoralarining rahbarlari va amaldorlari hokimiyati; keyinchalik jamiyatning turli sohalarida paydo bo'lgan yirik tashkilotlardagi xizmatchilar qatlamini ifodalagan. Boshqaruv va ma'muriyatning zarur qismi sifatida byurokratiya alohida ijtimoiy qatlamga aylanib boradi. Byurokrtiyaga xos xususiyatlar: kuyi mansabdorlarning yuqori mansabdorlarga bosqichmabosqich bo'ysunishi, qattiq ish tartiboti, maxsus ma'lumotni taqozo etuvchi rasmiylashgan vazifalarni amalga oshirishda mehnat va mas'uliyat taqsimoti. Tashkilot ko'pchilik a'zolarining mustaqil ravishda imtiyozli qatlamga aylanishga intilishi oqibatida rasmiyatchilik, o'zboshimchalik, avtoritarizm va sharoitga moslashish kuchaya boradi, tashkilotning tartibqoida hamda maqsadvazifalariga bo'ysundirilishi asosan B.ni mustahkamlash va saqlab qolish uchun xizmat qiladi. Bu hol ayniqsa avtoritar tizimlarda yaqqol namoyon bo'ladi. Mansabdor shaxs tomonidan o'z vazifasiga vijdotsizlik va sovuqqonlik bilan karat, fuqarolarning taklif, ariza va shikoyatlarini ko'rib chiqish tartibini buzish, ularga to'ralarcha munosabatda bo'lish hollari davlat va jamiyat manfaatlariga, fuqarolarning qonun bilan qo'riqlanadigan huquq va manfaatlariga jiddiy zarar yetkazadi. Demokratik jamiyat Byurokrtiyaning mazkur salbiy xususiyatlarini bartaraf etish va cheklashga qaratilgan nazorat hamda boshqaruv shakllarini ishlab chiqishga harakat qiladi.

Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasi JKda fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi mansabdor shaxslarning jinoyatlari tegishlicha jarima solish, muayyan xuqukdan maxrum qilish, axloqtuzatish ishlari yoki ozodliKdan mahrum etish kabilar bilan jazolanadi (VII bob). O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan xattiharakatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to'grisida"gi Qonuni (1995-yil 30 avgust) ham har bir fuqaro o'z huquqlari yoki erkinliklari buzilgan, deb hisoblasa, shikoyat bilan sudga murojaat qilish xuquqini ta'minlaydi.<sup>1</sup> Davlat fuqarolik xizmatiga kirishda barcha

---

<sup>1</sup> <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Byurokratiya>

fuqarolarning teng imkoniyatlardan foydalanishini hamda davlat fuqarolik xizmatida professional sifatlar va alohida xizmatlar asosida ko'tarilib borishni ta'minlaydigan nomzodlarni saralab olishning shaffof mexanizmlari shakllantirish, shuningdek aholi, ayniqsa yoshlar orasida barcha darajalardagi davlat fuqarolik xizmati nufuzini oshirish, korrupsiyaning yuzaga kelishi, rasmiyatchilik va byurokratiyaga imkon beruvchi sharoitlarni yo'q qilish maqsadida davlat fuqarolik xizmatchilarini moddiy rag'batlantirish va ijtimoiy himoya qilishning munosib darajasini kafolatlash choralari joriy etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 03.10.2019 yildagi "O'zbekiston Respublikasida kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5843-sonli Farmoni 95 bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi (keyingi matnda DXRA yoki agentlik) tashkil qilinib, u davlat organlari va tashkilotlarida xodimlarni boshqarish va inson resurslarini rivojlantirish sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish uchun mas'ul etib belgilangan.

Agentlik zimmasiga mazkur Farmon 96 bilan yuklatilgan asosiy vazifalar qatorida davlat fuqarolik xizmatchilarida yuksak kasbiy axloq- odobni, korrupsiyaga qarshi turish madaniyatini va unga toqatsiz munosabatni shakllantirish, O'zbekiston Respublikasining "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi Qonuni hamda Davlat fuqarolik xizmatini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish va unda davlat fuqarolik xizmatchilarida korrupsiyaga qarshi madaniyatni va korrupsiyaga toqat qilib bo'lmaydigan munosabatni shakllantirishning ta'sirchan mexanizmlarini joriy etish belgilanganligi bilan ahamiyatlidir.

Zero, Prezident SH.Mirziyoyev o'zining Oliy Majlisga ilk Murojaatnomasida "Davlat xizmati institutini isloh qilish, korrupsiyaga qarshi ta'sirchan kurash mexanizmlarini joriy etish kerak" 97 , deb ta'kidlab o'tgan.

Davlat xizmatini keng ko'lamli isloh etilishi orqali mazkur vazifalarni sifatli va samarali amalga oshirilishi korrupsiyaga qarshi kurashish bilan bog'liq quyidagi dolzarb masalalarni hal etishga imkon beradi:

1. Mamlakatimizda davlat xizmati faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirish shu jumladan, xo'jalik boshqaruvi organlari tomonidan davlat boshqaruvi va xo'jalik funksiyalarini birga qo'shib olib borish amaliyotidan voz kechish, davlat organlari va tashkilotlari xodimlarining mehnatiga haq to'lash hamda ijtimoiy ta'minlashning zamonaviy tizimini yaratish bo'yicha choralarini ko'rish;

2. Davlat organlari va tashkilotlarining malakali mutaxassislar bilan yetarli darajada ta'minlash, kadrlar malakasining yuklatilgan vazifalar va zamonaviy ehtiyojlarga muvofiqligiga, qabul qilinayotgan qarorlar sifatining yuqoriligiga erishish yo'lidagi bir qator tizimli muammolar va kamchiliklarni bartaraf etish;

3. Davlat fuqarolik xizmatini, shu jumladan nomzodlarni ochiq mustaqil tanlov orqali saralab olish jarayonini kompleks huquqiy tartibga solishni ta'minlovchi, shuningdek, davlat fuqarolik xizmatchilarining ish samaradorligi va kompetensiyasini baholovchi mezonlarni, ularning malakasini oshirishga bo'lgan talablarni belgilovchi to'g'ridan-to'g'ri ta'sir kuchiga ega qonunlarni qabul qilish;

4. Davlat fuqarolik xizmati masalalari bo'yicha vakolatli organni belgilash, davlat organlari va tashkilotlarida yagona kadrlar siyosatini olib borish, xodimlarni samarali boshqarish va inson resurslarini rivojlantirish, malakali kadrlar zaxirasini raqobat asosida shakllantirish hamda ular tomonidan davlat fuqarolik xizmatchilarining vakant lavozimlari o'z vaqtida egallanishga imkon berish;

5. Davlat fuqarolik xizmatiga kirishda barcha fuqarolarning teng imkoniyatlardan foydalanishini hamda davlat fuqarolik xizmatida professional sifatlar va alohida xizmatlar asosida ko'tarilib borishni ta'minlaydigan nomzodlarni saralab olishning shaffof mexanizmlari shakllantirish;

6. Aholi, ayniqsa yoshlar orasida barcha darajalardagi davlat fuqarolik xizmati nufuzini oshirish, korrupsiyaning yuzaga kelishi, rasmiyatchilik va byurokreatiyaga imkon beruvchi sharoitlarni yo'q qilish maqsadida davlat fuqarolik xizmatchilarini moddiy rag'batlantirish va ijtimoiy himoya qilishning munosib darajasini kafolatlash

choralari joriy etish. Keyingi yillarda xorij, jumladan, MDH mamlakatlari matbuotida korrupsiyaga qarshi kurashish yo'llari haqida maqolalar paydo bo'la boshladi. MDHga a'zo mamlakatlarda olib borilgan tadqiqotlar tahlili shundan dalolat beradiki, biz sho'rolar tuzumidan qutulganimizga o'ttiz yilbo'lganiga qaramay, sud-huquq organlari hamon davlat hokimiyatining itoatkor organiga aylanganicha turibdi. Bu jamiyat kushandasi, yaramas illat haqida davlatimiz rahbari deyarli har bir chiqishida ta'kidlab o'tadi. Biz viloyatlar sessiyalarida tashkiliy masala ko'rilganda, birinchi navbatda, mazkur masalaga ro'baro' kelmoqdamiz.

Poraxo'rlik va korrupsiya o'zbek jamiyatining rivojlanishiga, xususan, demokratik yangilanish hamda modernizatsiyalash jarayoniga har jihatdan xalaqit bermoqda. Garchi bu masala uzoq yillardan beri ta'kidlanib, "qo'lga tushgan" amaldorlar televideniye va matbuotda namoyish etilganiga qaramasdan, sud, prokuratura, idora rahbarlari hamda oddiy fuqarolarning qon-qoniga singib ketgan feodalizm sarqitlari, tamagirlik, byurokratiya jamiyatimiz hayotidan yo'qolib ketmayapti.

Eng avvalo, korrupsiyaga qarshi kurashishni oiladan boshlash darkor. Bu borada ayollarning roli katta, deb hisoblaymiz. Agar o'g'rilik yoki pora hisobiga kelgan luqmaning tag-ildizini ayollarimiz surishtirib bilsa, ochiq fikrini aytolsa, erlar halol rizqni izlashga tushib, ishi va oilasida fayz-baraka, sokinlik hamda xotirjamlik qaror topishi, shubhasiz.

Korrupsiya — tamagirlikning yuqori nuqtasi. Unga qarshi kurashish uchun amaldorlardan siyosiy iroda talab qilinadi. Ushbu vaziyatdan chiqish usuli shuki, avvalo, davlat byurokratik apparati hajmi imkon qadar kamayishi, fuqarolarning shaxsiy hayotiga va iqtisodiy faoliyatiga davlatning minimal aralashuvi, monopoliyaga barham berilishi lozim.

Muxtasar aytganda, korrupsiya — taraqqiyot kushandasi, xavfsizlikka tahdid tug'diruvchi xavfli jinoyat. Bu illatga qarshi kurashish tegishli organlarninggina emas, barcha birdak qarshi turish ishi bo'lishi zarur. Shundagina biz ushbu xavfni bartaraf etgan bo'lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Korrupsiya — taraqqiyotga to‘siq (Wayback Machine saytida 2016-03-04 sanasida arxivlangan), Inson va Qonun
2. Korrupsiya, uning oldini olishda antikorrupsiyaviy ekspertizaning o‘rni (Wayback Machine saytida 2013-08-31 sanasida arxivlangan), huquqburch.uz
3. О‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
4. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга мурожаати 22.12.2017 йил // Халқ сўзи <https://>
5. Bardhan P. Corruption and development // Journal of Economic Literature. — 1997. — Vol. 25. — P. 1320. [1] (Wayback Machine saytida 2009-09-20 sanasida arxivlangan)(ingl.)
6. Tanzi, V. Corruption, Governmental Activities and Markets // IMF Working Paper 94/99. — International Monetary Fund, Washington, DC. — 1994.
7. Электрон манба. URL:  
<https://president.uz/uz/lists/view/1371>
8. <https://tuit.uz/post/korrupsiya-va-milliy-taraqqiyot-muammo-va-yechim>